



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA LUG'AT USTIDA ISHLASHNING ILMIY- METODIK ASOSLARI VA SAMARALI MERODLARI

Rasulova Sarvinoz

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti „, Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ” yo'nalishi 1- bosqich magistranti

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq madaniyatini shakllantirishda lug'at ustida ishlashning ilmiy-metodik asoslari yoritiladi. Lug'at boyligini oshirishning psixologik va pedagogik talablari, dars jarayonida qo'llaniladigan samarali interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, matn asosidagi mashqlar hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni tahlil etiladi. Lug'at ustida ishlashning bosqichlari tizimli yondashuv asosida ko'rib chiqilib, o'quvchilarning faol nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.


Kalit so'zlar: lug'at, nutq madaniyati, interaktiv metodlar, o'yin texnologiyalari, boshlang'ich ta'lim, matn asosida ishlash, metodika.

Аннотация

В статье раскрываются научно-методические основы работы над словарём учащихся начальных классов в процессе формирования их речевой культуры. Анализируются психологические и педагогические особенности обогащения словарного запаса, эффективные интерактивные методы, игровые технологии, работа с текстом и современные цифровые платформы. Представлены этапы организации словарной работы и методические рекомендации, направленные на развитие активной речи младших школьников.

Ключевые слова: словарная работа, речевая культура, интерактивные методы, игровые технологии, начальное образование, работа с текстом, методика обучения.

Abstract





This article examines the scientific and methodological foundations of vocabulary development in primary school language classes. It analyzes pedagogical and psychological aspects of vocabulary enrichment, effective interactive strategies, game-based methods, text-centered activities, and the role of modern educational technologies. The stages of vocabulary instruction are outlined, and methodological recommendations aimed at developing students' active speech are provided.

Keywords: vocabulary development, speech culture, interactive methods, game-based learning, primary education, text-based activities, methodology.

Kirish

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarda nutq madaniyati, ravon o'qish, aniq fikrlash va savodli yozish ko'nikmalarining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida lug'at ustida ishlash bu jarayonning markaziy yo'nalishlaridan biridir. So'z — o'quvchi tafakkuri, dunyoqarashi va bilim doirasining asosiy ko'rsatkichidir. Bola qancha ko'p so'z bilsa va ulardan ongli foydalana olsa, uning nutqi, o'qish malakasi va matnni anglash darajasi shunchalik rivojlanadi. Lug'at ustida ishlash alohida mavzu sifatida emas, balki darsning barcha bosqichlarida tabiiy ravishda amalga oshirilishi zarur. Yaxshi tashkil etilgan lug'aviy mashqlar o'quvchilarning so'z boyligini nafaqat miqdoran, balki sifat jihatdan ham boyitadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligi ularning o'qigan matnni anglashida, nutqiy faolligida, fikrni ifoda etishida asosiy tayanch bo'lib xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, 7–10 yoshli bolalar so'z ma'nosini alohida holda emas, balki kontekstda, hodisa yoki vaziyat bilan bog'liq holda tezroq anglaydi. Shu sababli lug'at ustida ishlash matn, rasm, hayotiy kuzatishlar asosida tashkil etilishi lozim.

Lug'at ustida ishlash quyidagi faoliyatlarni o'z ichiga oladi:

so'z ma'nosini izohlash;


so'zning kontekstda qo'llanishini tushuntirish;

yangi so'zlarni faol nutqqa kiritish;

leksik guruhlar bilan ishlash;

sinonim va antonimlarni topish;





taqqoslash va umumlashtirish mashqlarini bajarish;

aktiv va passiv lugʻatni rivojlantirish.

Leksik bilimlar bolaning umumiy tafakkurini rivojlantiradi, dunyoni idrok etish qobiliyatini kengaytiradi va nutqiy kompetensiyani shakllantiradi.

Lugʻatni boyitishning metodik vazifalari:

Lugʻaviy ishlarni tashkil etish quyidagi metodik maqsadlarni koʻzlaydi: oʻquvchining faol nutqida qoʻllaydigan soʻzlar sonini koʻpaytirish; passiv lugʻatni kengaytirish; soʻz maʼnosini ongli anglashni shakllantirish; sinonim, antonim, omonim kabi leksik birliklar bilan tanishtirish; toʻgʻri talaffuz va imlo koʻnikmalarini mustahkamlash; soʻzlarning uslubiy xususiyatlarini anglashni rivojlantirish; bayon va matn tuzishda lugʻatdan toʻgʻri foydalanishga oʻrgatish.

Ona tili darslarida lugʻat ustida ishlashda samarali metodlar:

1. Interaktiv metodlar

Interaktiv metodlar oʻquvchilarni darsga faol jalb etadi, mustaqil fikrlashni rivojlantiradi va soʻzlarni eslab qolishni osonlashtiradi.

2. Samarali metodlar:

Aqliy hujum — mavzu boʻyicha soʻzlarni tezkor toʻplash.

Insert — bilgan va bilmagan soʻzlarni belgilash orqali matn ustida ishlash.

Blits-soʻrov — soʻz maʼnosi, sinonim, antonimni tezkor aniqlash.

Klaster — soʻz atrofida leksik xarita yaratish.

Baliq skeleti — murakkab tushunchalarni tahlil qilish.

Rolga kirish — soʻzlarni real vaziyatda qoʻllash.

Oʻyin metodlari: Oʻyinlar boshlangʻich sinf oʻquvchilari uchun eng tabiiy faoliyat boʻlib, leksik bilimlarni mustahkamlashda muhim rol oʻynaydi.

Samarali oʻyinlar:



Kim tez? — ma’noga mos soʻzni topish.

Ortiqcha soʻzni top — umumlashtiruvchi fikrlashni rivojlantiradi.

Sinonim top — leksik tafakkurni kuchaytiradi.

Zanjirli soʻzlar — soʻzlar oʻrtasidagi bogʻliqlikni sezdiradi.

Rasm asosida soʻz aytish — vizual material bilan ishlash.

Matn asosida lugʻatni boyitish. Matn bilan ishlash lugʻatni kontekst asosida mustahkamlashning eng samarali usulidir.

Metodlar:

kontekstual izoh;

matndan predmet, sifat, harakat bildiruvchi soʻzlarni ajratish;

soʻzlarni maʼno guruhlariga ajratish;

sinonim va antonimlarni topish.

Zamonaviy texnologiyalar asosida lugʻat ustida ishlash. Bugungi taʼlim jarayonida raqamli vositalardan foydalanish lugʻatni boyitish samaradorligini oshiradi.

Texnologik vositalar:

rasm, audio, video orqali soʻz maʼnosini tushuntirish;

animatsiyalar asosida harakat bildiruvchi soʻzlarni oʻrgatish;

“LearningApps”, “Kahoot”, “Wordwall” platformalari orqali interaktiv test va mashqlar yaratish.

Lugʻaviy mashqlarni tashkil etish bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi — yangi soʻzlarni tanlash.
2. Tushuntirish bosqichi — soʻzlarning maʼnosini izohlash.
3. Mustahkamlash bosqichi — oʻyin, interaktiv usullar orqali soʻzlarni qoʻllash.
4. Amaliy bosqichi — bayon, gap tuzish, matn yaratish.



5. Nazorat bosqichi — test, kartochka, blits-so‘rov.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lug‘at ustida ishlash o‘quvchilarning nutq madaniyati, ravon o‘qish, matnni anglash va fikrni aniq ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy metodik jarayondir. Interaktiv metodlar, o‘yinli topshiriqlar, matn asosidagi ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar lug‘atni boyitishda yuqori samarani ta‘minlaydi. Darsning har bir bosqichida tizimli yondashuv asosida tashkil etilgan lug‘aviy mashqlar o‘quvchining faol nutqini sifat jihatidan o‘zgartiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'afforova T. Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar
2. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - Toshkent: OME, 2006-2008.
3. Karima Qosimova, Safo Matchnov, Xolida Gulomova, Sharofat Yo‘ldasheva, Sharofjon Sariyev "Lug‘at ustida ishlash metodikasi"
4. "O‘zbek tili fanidan lug‘atlar ustida shlash orqali talabalarning so‘z boyligini oshirish" metodik ko‘rsatmasi. Toshkent-2005